

## 9 MAY XOTIRA VA QADRLASH KUNI

**Saidaxon Amirxonzoda**

*Toshkent shaxar Uchtepa tumani  
287 - sonli maktab 8-A sinf o'quvchisi*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada O'zbekiston mustaqillikka erishgandan buyon jahonda va Markaziy Osiyo mintaqasida barkarorlik, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishda gumanitar operatsiyalar, 9 may yurtimizda keng miqyosda "Xotira va qadrlash kuni" katta tantanalar bilan nishonlanib 1941-1945 yillar urush va mehnat frontida tinchlik uchun kurashib halok bo'lgan jasur va matonatli o'g'lonlar hotirasi yod etiladi, nuroniylarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni holidan xabar olish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash to'g'risida yozilgan.*

**Kalit so'zlar:** *O'zbekiston, mustaqillik, jahon, Markaziy Osiyo, barqarorlik, gumanitar operatsiyalar, urush, mehnat fronti, tinchlik.*

Tinchlik, xalqaro tinchlik — xalqlar va davlatlar o'rtasida zo'rlik ishlatmasdan tashki siyosat olib borishga, o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarishga va odatda, xalqaro shartnomalarda mustahkamlab qo'yilgan majburiyatlarga rioya etishga asoslanadigan munosabatlar: davlatlar o'rtasida uyushtirilgan qurolli kurash (ya'ni urush)ning yo'qligi. Dunyo, jamiyat rivojlanib borgan sari xalqaro munosabatlarning sub'yektlari O'rtasida vujudga keladi gan mojarolar, nizolar, kelishmovchiliklarni hal qilishning zamonaviy yullari, usullari ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Bunda quyidagi holatlar hisobga olinmoqda:

21-asr boshlarida mojarolarning sabablari va manbalari;

mojarolarning ishtirokchilari; mojarolarning xarakteri va mazmuni;

bu mojarolarni hal etuvchi xalqaro tashkilotlar faoliyati o'zgarayotganligi. Tinchlikni saklash uchun mojarolarning oldini olish, ularni tugatishda diplomatik metodlarning roli ma'lum darajada kamayib, iqtisodiy va moliyaviy vositalarning kuchayib borishi kuzatilmoqda. Shuningdek, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishda gumanitar operatsiyalar sezilarli rol o'ynamoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan buyon jahonda va Markaziy Osiyo mintaqasida barkarorlik zarurligidan kelib chiqib o'z tashqi siyosatini amalga oshirmoqsa. Mamlakatimiz dunyoda Tinchlikni saklashning barcha xalqaro huquqiy me'yorlariga amal qiladi va ularga sodiq qoladi.

Biz yoshlarga nima kerak, har kuni tinchlik – osoyishtalik va xotirjamlik kerak. Tinchligini yo'qotgan xonadon ham, mamlakat ham aslo xotirjam bo'la olmaydi.



9 may yurtimizda keng miqyosda "Xotira va qadrlash kuni" katta tantanalar bilan nishonlanib 1941-1945 yillar urush va mehnat frontida tinchlik uchun kurashib halok bo'lgan jasur va matonatli o'g'lonlar hotirasi yod etiladi hamda urush va mehnat frontida jasorat ko'rsatgan nuroniylarimiz e'zozlanishi xalqimizga xos qadriyatlar ko'zgusi sanaladi. 9 may Xotira va Qadrlash kuni tarzida umumhalq bayrami sifatida nishonlanib kelayotganimiz zamirida ham aynan ana shu ezgu maqsad yotibdi. Bobom aytganlaridek azal-azaldan tinchliksevar halkmiz. Shu g'oya ichida buyuk milliy merosimiz bor, ularning barida tinchlikni qadriga etish targ'ib etiladi. Dadamning bobolari menga shunday gaplarni aytib berganlar. Aytishlaricha 604 ming 52 nafar hamyurtimiz urush maydonlaridan nogiron bulib qaytishgan, 450 mingdan ortiq vatandoshlarimiz esa qonli janglarda halok bo'lgan ekan. Hamon oramizda qanchadan qancha front ortida mehnat-mashaqqat chekanlar bor.

Nuroniylarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni holidan xabar olish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash kasaba uyushmalarida an'anaga aylangan. "Xotira va qadrlash kuni"ni munosib kutib olish va nishonlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi hamkorligida joriy yilning 6-8 may kunlari qator urush va mehnat fronti fahriylari, nuroniylar, afg'on urushi qatnashchilari xolidan xabar olishni rejalashtirgan. Yurtimizning bugungi tinch-osoyshta hayoti uchun jasorat ko'rsatib fido bo'lgan vatandoshlarimiz xotirasini yot etish esa eng oliy vazifamizdir. Zero "Inson aziz, xotira-muqaddas"dir.

Mustaqil O'zbekiston xalqi va davlati Tinchlik-totuvlik tarafdorimiz, Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, 1999 yildan boshlab Xotira va qadrlash kunini keng nishonlaymiz. Biz yoshlar front ortida xizmat qilgan hamyurtlarimizni qadrlashimiz va xolidan xabar olishimiz kerak. Bizning yurtimizda shu ulug' bayramni o'zgacha nishonlaymiz.

Shu o'rinda maktabda ustozim gapirgan gaplari esimga tushdi, Halq xotirasi deganda ko'z o'ngimda, shu xalq deb kurashgan buyuk bobolarimiz, Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bekdan Zahiriddin Muxammad Boburgacha yodga tushardi.

Xotira va qadrlash kuni chinakkam milliy-umumxalq bayramga aylandi. Shu kuni O'zbekistonning barcha ziyoratchilarni qabristonga borganini ko'raman. Men ham bobom Amir Fayzulla qabrlariga borishni niyat qilib quydim.

Men 2021 yil Xotira maydoniga borganimda devordagi yozuvlarni ko'rib ko'zinga yosh keldi. Jangda xalok bo'lgan tirik jonning hech bir noma'lum emasligini o'qidim. Kimningdur ota onasi, kimningdur aka-ukasi shaharu qishlog'idagi yaqin insonlari va qo'ni qo'shnilari bor edi.



O'tganlarni xotirlash safimizda yurganlarni esa qadriga etishimiz lozim.

So'zimning oxirida nima demoqchiman - Men yashab turgan yurtimga aslo ko'z tegmasin, Mustaqil O'zbekistonimning osmoni musaffo, quyoshi hamisha porlab turishini chin dildan alloximdan so'rab qolaman.

Fashizmga qarshi urushda mardonavor jang qilgan, og'ir mashaqqat va musibatlarni boshdan kechirgan qahramonlar va xalqimiz asrlar davomida orzu qilgan erkinlik uchun o'z jonini qurbon qilganlar xotirasi hamisha yodimizdadir albat. Vatanini himoya qilishda jonini fido qilgan, xalq orzu qilgan erkinlik uchun kurashgan milliy qaxramonlarimizni ruhi oldida yana bir bor ta'zim aylaymiz.

Tinchlik-xotirjamlik – taraqqiyot garovidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <http://tradeunionict.uz/uz/news/207>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tinchlik>

